

**TALABALAR MA'NAVIY AXLOQIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA
“QOBUSNOMA” ASARIDAN FOYDALANISH**

Ortiqov O. R.

Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasи o‘qituvchisi

Annatasiya: Mazkur maqolada ta’lim tarbiyada muhim ahamiyatga ega, har bir bobda muhim bir kasb yoki sohaga oid tarbiya haqida bayon etilgan IX-XII asrlar Renesans davrida yaratilgan asar “Qobusnomा” haqida unda yozilgan pand-nasiyat, odob-axloq, insonlarda bo‘lishi kerak bo‘lgan axloqiy fazilatlar, xulq, atvor haqida, ma’naviyatli bo‘lib shakllanishiga ta’sir etuvchi insoniy fazilatlar haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: axloq, ododb, xulq, tarbiya, ta’lim, ma’naviyat, axloqiy fazilatlar, pand-nasihat, ma’naviyat, ma’rifat.

Аннотация: В данной статье большое значение в образовании имеет образование, в каждой главе описывается образование, связанное с важной профессией или сферой, описываются нравственные качества, поведение, характер, человеческие качества, влияющие на формирование духовности.

Ключевые слова: этика, манеры, поведение, обучение, воспитание, духовность, нравственные качества, советы, духовность, просвещение.

Annotation: In this article, education is of great importance in education, each chapter describes education associated with an important profession or field, describes moral qualities, behavior, character, human qualities that affect the formation of spirituality.

Key words: ethics, manners, behavior, education, upbringing, spirituality, moral qualities, advice, spirituality, enlightenment.

Jahon ta’lim tizimida javob bera oladigan, munosib o‘ringa ega kadrlarni tarbiyalash muhim masalalardan biriga aylanib ulgurdi. Shunday ekan, bugungi kun talabalariga ilm olish bilan birgalikda ma’naviy-axloqiy sifatlar, mafkuraviy immunitetini rivojlantirish, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, Yangi O‘zbekiston uchinchi Renesans davrida zamonaviy ta’lim tizimini isloh qilinishi, ta’limda demokratik, adolatlilik, insonparvarlik prinsiplarini keng ko‘lamda joriy etishni taqozo etmoqda.

Dunyo ilm faniga bebahо hissa qo‘sghan ajdodlarimizning ilmiy merosi, pand-nasihat ruhida yaratilgan asarlari, donishmandnoma fikrlarini o‘rganishni taqozo etmoqda.

Yurtimizda ham bugungi kunda ta’lim-tarbiya masalalari eng dolzARB vazifa ekanligi, talaba-yoshlarning mafkuraviy sifatlarini shakllanish va rivojlanish zamon talabalariga mos kadtarni tarbiyalash dolzARB ekanligini hayotning o‘zi talab etmoqda. Ma’naviy-ma’rifiy merosimiz, ajdodlarimizning tarixiy ilmiy merosini o‘rganmog‘imiz darkor.

Ajdodlarimizning ilmiy merosi bizlarga ma’naviy-axloqiy tarbiya bilan birgalikda, yuksak insoniy sifatlarni shakllantirishni, odob, axloq normalariga amal kilishni, yosh avlodni tarbiyali bo‘lishiga, shu bilin birgalikda zamon talabalariga mos, javob bera oladigan inson, shaxs bo‘lib yetishishni, turli mafkura va qarashlarga tura oladigan o‘z yurtini, vatanini himoya qila oladigan inson bo‘lishga o‘rgatadi.

Sharq azaldan ilm-fan, ma’naviy va ma’rifiy merosga ega yurt bo‘lib, ajdodlarimiz yaratgan boy ilmiy merosi o‘rganmog‘imiz, asarlarini tahlil qilishimiz, ma’no-mazmunini keyingi avlodlarga o‘rgatishimiz lozim.

IX—XII asrlar “Sharq uyg‘onish davri sanalib, bu davrda olimu-fozillar, mutaffakirlarning yaratgan ma’naviy merosi talabalar mafkuraviya immunitetini rivojantirish, ularda vatanparvarlik, yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shunday asrlar sirasiga Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni- lug‘otit turk”, Ahmad Yugnakiyning “Hibatul-haqoyiq”, Imom Buxoroiy, Imom at Termiziy hadislari, Beruniy, Ibn Sino, Muso la Xorazmiy, Farg‘oniy, Motrudiy, Marg‘iloniy, Farobi, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug‘bek, Zaxriddin Muhammad Bobur singari allomalarning pand-nasihat ruhidagi asarlari juda qimmatli manba sanaladi.

Shunday asarlar sirasiga Kaykavusning “Qobusnama” asari ham muxim tarbiyaviy ahamiyatga ega asar sanaladi. “Qobusnama” asari ma’naviy-ahloqiy ruhda yozilgan asar bo‘lib, XI Asrda yaratilgan. Hijriy 475 yilda yozilgan mazkur asar muallifi Kaykovus Kaspiy dengizi bo‘yida yashovchi hilon qabilasida mayda amaldor oilasida tug‘ilgan. “Mav’izatnomai Kaykovus” nomli asarda asarning yaratilish haqida ma’lumot keltirilgan. Mazkur asarni Muhammad Rizo Ogahiy tarjima qilgan. Kaykovus “Qobusnama asarini yozganda ancha keksaygan edi. Muallif o‘zining asarida buhaqida yozib qoldirgan.

1082-83 yillarda yaratilgan mazkur asarni muallif o‘z o‘g‘li G‘ilonga bag‘ishlangan bo‘lib, pand-nasihat ruhidagi asar hisoblanadi. Tarixiy jihatdan olib qaraganda bu davr Somoniylar davri edi. Kaykovusning bobosi Qobus somoniylar davrida amaldorlar biri bo‘lgan, Vengiyalik tarixchi Xerman Vamberi o‘zinig “Buxoro yoxud Movorounnahr tarixi” nomli asarida Qobus va uning ajdojlari haqida yozib, shunday ma’lumot beradi; “Vushmagir o‘g‘li Shamsil Maoniy Qobus... uyg‘ur hukmdorlaridan Ilikxon qo‘smini ustidan ikki bor g‘alaba qozongan bo‘lsada, Somoniylar hukumatini tiklay olmadi”[5.145b].

Qobus haqida tarixchi Mirxon o‘zinig “Ravzat us-safo” nomli asarida ma’lumot bergen. Hukmdor Qobus haqida Latif Alibek Ozar Isfahoniy “Tazkirai otashkada” asarida ham ma’lumot bergen.

Kaykovus bobosi Qobus haqida ma’lumot berar ekan, o‘z davrining adolatlari xukmdorlaridan bo‘lib, ilm kishilaridan biri edi, - deb ta’kidlaydi. Kaykovus ma’lumotlariga tayanib ayta olishimiz mumkinki Qobus hukmdorlikdan tashqari ilm-fan, adabiyot va san’at ga ishqi tushib, arab va fors tillarini ham mukammal bilgan. Tarixiy Jurjon shahrida Qobus ilmiy-adabiy muhit yaratib, o‘z darining yirik olimlaridan biri Abu Rayxon Beruniy mazkur ilmiy markazda faoliyat yuritgan.

Biz ma’lumotlarni keltirishimizdan ko‘zlangan maqsad Kaykovusning “Qobusnama” asari tarixiy hukmdor Qobus tilidan yozilganligini aytmoqchi edik. Shuningdek, Kaykokus o‘zining “Qobusnama” asarida yozishda, Tohiriyalar davrida yaratilgan pedagogik asarlarni tahlil qilib, Buxoro, Samarqand, Xorazmdagi olimu-fuzalollar bilan uchrashib, ular bilan aynan ilmiy-adabiy meros haqida suhbatlashadi.

Kaykovus “Qobusnama” asarini yozar ekan, Nosir Xusravning “Saodatnama” va Ro’shnomayinoma” asarlarini namuna sifatida foydalanadi. “Qobusnama” asari bola tarbiyasida, ma’naviy saviyasni yuksaltirishda, mafkuraviy immunitetni shakllantirishda, axloqiy sifatlarni shakllanishiga xizmat qiladigan asar bo‘lib, muallaf tilidan pand-nasihat ruhida yozilgan. Asarda insonparvarlik, odamiylik, adolatlilik, ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirishga yordam beradigan islam dinining muqaddas kitobi “Qur’oni karim”dan oyatlar, hadislardan namunalar, xikoyalar, rivoyatlar, hayotiy misollar, muallafning hayotiy xulosalari, fikr-mulohozalari keltirilgan.

Kaykovusning “Qobusnama” asari o‘z davrida yozilgan pand-nasihat ruhidagi asar sanalib, asar o‘sha davrdan bir necha tillarga tarjima qilingan. Asarni bizgacha yetib kelishida g‘arb sharqshunoslarining, sharq olimlari va pedagoglarining diqqatini anchadan beri o‘ziga tortib keladi. Asar turk (1432, 1705), uyg‘ur (1786-87), nemis (1811), o‘zbek (1860, Ogahiy tomonidan), tatar (1881), fransuz va rus (1886) tillariga tarjima qilingan. Ogahiy tarjimasining 2 qo‘lyozma nusxasi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida, yana bir qo‘lyozma nusxasi Sankt-Peterburgda Saltikov-Shchedrin nomidagi Xalq kutubxonasiда saqlanadi. „Qobusnama“ning Subutoy Dolimov tomonidan hozirgi o‘zbek tiliga o‘girilgan nusxasi Toshkent shahrida 3 marta nashr qilingan.

Asar tuzilishi jihatdan 44-bobdan iborat bo‘lib, xar bir bob ma’lum bir tarbiyaviy ahamiyatga ega mavzuga bag‘ishlangan.

Kaykovus “Qobusnama” asari talabalar intelektual salohiyati va ruhiy olamining uyg‘unligi shakllantirishga, ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishda, jamiyat hayotida tub islohotlarning mazmun-mohiyatini amqlagan holda ma’naviy-axloqiy fazilatlari va xususiyatlarini

rivojlantirishda ko‘zga tashlanadi. Davlatning kuch-qudratini ma’naviy barkamol bo‘lishiga xalq va yurt manfaati har bir ishda, xatti-harakatlarda, o‘zaro munosabatlarda, jamoa turmush tarzi va tartib-qoidalarini hurmat qilib, unga amal qilishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan yondashganda, ma’naviyat axloq tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqligi namoyon bo‘ladi. Tarbiya va yoshlarga oid davlat siyosati zamiridagi yosh avlodni tarbiyalash maqsadi tom ma’nodagi ezgulik g‘oyasidir. Yoshlarning bilim olishi, kasb-hunar egallashi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar davlatimizning ta’lim-tarbiya tizimi markazida turuvchi ma’naviy-axloqiy tarbiya, avvalo, shaxs ma’naviyatini rivojlantirish masalasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, yuksak axloqiy fazilatlar, ma’naviy yetuklik va ma’naviy qiyofani tarkib toptirishga xizmat qiladi.

Ma’naviyat – kishilarining falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui. Ma’naviyat mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlari bilan bog‘liq tushunchalardir. Ma’naviyat – insonning ongi, aqliy qobiliyatini, ruhiy kechinmalarini yaxshiliklarga, ezgu niyatlarga to‘la qalbini ifodalovchi ko‘p qirrali tushuncha [5,678 b].

Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

Xulosa qilib aytganda Kaykovusning “Qobusnoma”asari yoshlar ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda, yuksak intelektual salohiyati va ma’rifiy sifatlarini shakllantirishga ilm-fan taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi, mafkuraviy qarashlarining shakllantirishga ko‘maklashadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g’risida»gi Qonuni. -T., 2020
2. Mirziyoev SH.M. Yuksak ta’riflarga munosib zamin // Buyuk kelajagimizni mard va oliv janob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: «O‘zbekiston». 2017-yil.
3. Kaykovus “Qobusnoma” –T.: “
4. Херман Вамбери “Бухоро ёхуд Моворуннаҳр тарихи” Москва, 1924 йил, 145 бет.
5. Hasanboev J., To‘raqulov X., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – 678 b.
6. Ortiqov O. R. Globallashuv jarayonida bo‘lajak o’qituvchilarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish omillari //scientific progress. – 2021. – т. 1. – №. 5. – с. 160-165.
7. Ortiqov O. R. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida mafkuraviy immunitetni rivojlantirish texnologiyalari (oliy ta’lim mussasalari misolida) //экономика. – с.1130-1135.

8. Ortiqov O. R. O‘qituvchi faoliyatida pedagogik deontalogiya va kompentlikning roli va ahamiyati //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 5. – C. 42-47.

Internet saytlari:

<https://lex.uz/docs/-5344692>

<https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20M%20harfi.pdf